

TEZ-TEZ KASALLANUVCHI BOLALARNING KOMPLEKS REABILITATSIYASI

Shayxova M.I.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Ganiyeva D.K.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Toshkent, O'zbekiston

Dolzarbligi

Tez-tez kasallanuvchi bolalar o'tkir respirator kasalliklar (O'RK) bilan kasallanish darajasi, tengdoshlariga nisbatan yuqori bo'lgan, bolalar guruxini anglatadi. "Tez-tez kasallanuvchi bolalar" muammosi hozirgacha pediatriya amaliyotida dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Tez-tez kasallanuvchi bolalarda yuqori nafas yo'llari kasalliklari-rinit, nazofaringit, quyi nafas yo'llari kasalliklari – traxeit, bronxit, pnevmoniya, quloq-burun-tomoq kasalliklari – otit, yevstaxit, adenoidit, sinusit ko'p uchraydi va boshqa somatik patologiyalar ham kuzatiladi.

Tekshiruv maqsadi

Tez-tez kasallanuvchi bolalarda kompleks rehabilitatsiyaning olib borilishini o'rganish.

Materiallar va usullar

So'nggi yillarda chop etilgan mahalliy va xorijiy adabiyot manbalari o'rganildi va taxlil qilindi.

Natijalar

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bergan ta'rifiga ko'ra, yiliga o'tkir respirator kasalliklar bilan 5 martadan ko'p og'rikan bolalar tez-tez kasallanuvchi bolalar guruxiga kiradi. 1986 y.da akademik A.A. Baranov va professor V.Y. Al'bitskiy 1 yoshgacha bo'lgan bolalar O'RK bilan yiliga 4 marta va undan ko'p; 1 yoshdan 3 yoshgacha – yiliga 6 marta va undan ko'p; 3 yoshdan 5 yoshgacha – yiliga 5 marta va undan ko'p; 5 yoshdan katta bolalar – yiliga 4 marta va undan ko'p O'RK bilan kasallanadigan bo'lsa tez-tez kasallanuvchi bolalar guruxiga kiritishni taklif etdilar.

Tez-tez kasallanuvchi bolalar guruxini avvalombor allergik kasalliklar, respirator allergozlar, immun tanqislik holatlari o'z vaqtida aniqlanmagan bemorlar shakllantiradi. Turli mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, 15% dan 75% gacha bo'lgan bolalar aholisi tez-tez kasallanuvchi bolalar guruxini tashkil qiladi. Umumqabul qilingan tasnifga muvofiq tez-tez kasallanuvchi bolalar, surunkali kasalliklar rivojlanishining xavfi mavjudligi bilan, salomatlikning II guruxiga kiritiladi.

Respirator traktning o'tkir infeksiyalar patologiyasi respirator tizim barcha kasalliklarining 90% ni tashkil qiladi. O'RI bilan maksimal kasallanish 6 oylikdan

6 yoshgacha kuzatiladi va yiliga 4-6 martani tashkil qiladi. Tez-tez kasallanuvchi bolalarda tibbiy yordam 3 yo'nalishda olib boriladi: 1. Surunkali infeksiya o'choqlarini sanatsiya qilish va organizmning rezistentligini oshirishga qaratilgan tiklantiruvchi yoki reabilitatsiya tadbirlari. 2. O'RK ning etiopatogenetik terapiyasi. 3. Immunoterapiya va vaksinoterapiya. Xavf omillarini erta aniqlash, bolalarning rivojlanishi uchun optimal sharoitlarni yaratish, tibbiy, psixologik va reabilitatsiyaning boshqa usullarini kompleks qo'llash, tiklantiruvchi davoning nomedikamentoz usullaridan foydalanish reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari bo'lib hisoblanadi. Tez-tez kasallanuvchi bolalarning reabilitatsiya dasturida faol harakat tartibi, umumiy va mahalliy muolajalar bilan chiniqtiruvchi tadbirlar kompleksi, nafas mashqlaridan foydalangan holda davolovchi jismoniy tarbiya kompleksi, massaj, mahalliy himoya omillari va yuqori nafas yo'llari shilliq qavatining regeneratsiyasini rag'batlantirish uchun ingalyatsiya, turli o'simliklar bilan fitoterapiya, fizioterapevtik muolajalar tavsiya etiladi. Kasallikning patogenezini hisobga olgan holda respirator infeksiyalarni ratsional davolash uchun yallig'lanish va virusga qarshi dori vositalari, immunomodulyatsiyalovchi preparatlar, antibiotiklar, probiotiklar, vitaminlar qo'llaniladi. Sog'lom turmush tarzi, ratsional ovqatlanish, chiniqtirishning turli dasturlari tez-tez kasallanuvchi bolalarda O'RK ning oldini olishning eng samarali tizimi bo'lib hisoblanadi.

Xulosa

Shunday qilib, tez-tez kasallanuvchi bolalarning kompleks reabilitatsiya dasturida tiklantiruvchi davoning barcha bosqichlarida immunreabilitatsiya asosiy chora-tadbirlardan biri bo'lib hisoblanadi. Tez-tez kasallanuvchi bolalarning kompleks reabilitatsiyasi kasallanishning 2-4 baravar pasayishiga imkon beradi va shu bilan bir vaqtda o'z vaqtida olib borilgan profilaktik chora-tadbirlar bolalarda respirator infeksiyalarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Реабилитация детей и подростков школьного возраста с бронхиальной астмой/Д.К.Ганиева, Д.И.Каримова, Н.Н.Тоирова// Национальный конгресс с международным участием «Союз Педиатров России», 2022. С. 133-134, FORCIPE, 2022 – cyberleninka.ru

2. Частота встречаемости хронических бронхолегочных заболеваний у детей подросткового возраста/Д. Ганиева// Материалы научно-практической (ON-LINE) Конференции с международным участием «Инновационные подходы к диагностике, лечению и профилактике туберкулеза и неспецифической респираторной патологии у взрослых и детей» 25 марта 2021, С.111

3. Влияние реактивности организма на клинические формы респираторной аллергии у детей/ Деворова М.Б., Шайхова М.И. // Врач-аспирант- 2014, №1.2(62). – С. 255-259.

4. Анализ изучение клинических проявлений аллергических заболеваний у детей, рожденных от матерей, страдающих аллергической



патологией/ Деворова М.Б., Шайхова М.И. // Spirit time№4(28)2020.Берлин. – С.76-78.

5. Шамансурова, Э. А., and В. Н. Панкратова. "Частота выявления хламидийных антител при респираторной патологии у детей." Вопросы охраны материнства и детства 9 (1988): 32-34.

6. Агзамова, Ш. А. "ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ЖЕНЩИН С АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ В ПЕРИОД ПОСТМЕНОПАУЗЫ В АМБУЛАТОРНО-ПОЛИКЛИНИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ." Артериальная гипертензия 2018 на перекрестке мнений. 2018.

7. Файзиев, А. "LDH activity in the blood serum of children with complicated pneumonia." Актуальные вопросы практической педиатрии 1.1 (2023): 297-298.

8. Деворова, М., and Г. Махкамова. "Distinctive features and prevalence of allergic rhinitis in children." Педиатрия 1.1 (2023): 263-267.

9. Махкамова, Г. Т., and А. А. Тиллабоева. "АВТОНОМИЯ РЕБЕНКА КАК ПАЦИЕНТА В ПЕДИАТРИИ." Экономика и социум 2 (57) (2019): 635-638.

10. Ахмедова, Д. И., and Н. Н. Эргашева. "Динамика массы тела при врожденной кишечной непроходимости у новорожденных." Врач-аспирант 53.4 (2012): 70-76.

11. Улугов, Аскар Исмамович, and Чори Жумаевич Бутаев. "Влияние респираторных аллергических заболеваний на биофизические свойства мембраны эритроцитов у детей." Евразийский Союз Ученых 5-5 (14) (2015): 72-74.

12. Исаханов, Баходир Гафурович, Бахром Анисханович Аляви, and Нигора Хикматовна Исаханова. "Клиническая эффективность ингибитора АПФ и АРА при кардиоренальном синдроме." Молодой ученый 1 (2015): 144-146.

13. Ганиева, Д., Шайхова, М., Каримова, Д., & Хасанова, Г. (2023). Болаларда метаболик синдром. Педиатрия, 1(1), 415-419.

14. Валиев, Фаррух Нигматжонович. "ФИЗКУЛЬТУРА ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ МЕДИЦИНСКИХ ГРУПП." Интернаука 19-2 (2020): 8-11.